# Forum doirasida psixologik seminar-trening tashkil etildi

// 10.06.2026
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/forum-doirasida-psixologik-seminar-trening-tashkil-etildi



Kimyo sanoati yosh mutaxassislari forumi doirasida Ilm-fan va ta’lim-tarbiyani rivojlantirish fondi bilan hamkorlikda psixologik seminar-trening bo‘lib o‘tdi.
Trening davomida mutaxassislar tomonidan shaxsiy rivojlanish, liderlik qobiliyatlarini shakllantirish, jamoada samarali ishlash, muloqot madaniyati hamda stressli vaziyatlarni boshqarish mavzularida ma’ruzalar qilindi.



Seminar ishtirokchilarga oʻz ustida ishlash, kasbiy faoliyatda samaradorlikni oshirish hamda jamoa bilan ishlash koʻnikmalarini rivojlantirish boʻyicha foydali tavsiyalar berilishi bilan ahamiyatli boʻldi.









